

PEDAGOGIK FAOLIYATNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Turdimatov Javohir Nurmatjon o'g'li

Ilmiy raxbar:

Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada o'qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablar, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'rni, pedagogik faoliyatda, shaxslararo munosabatlar jarayonidagi muloqot ko'nikmalari, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahorat, pedagogik nazokat kabi sifatlarini tarbiyalash xususida to'xtalindi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, maqsad va vazifalar, pedagogika, psixologiya, motivatsiya, metod, pedagogik faoliyat.*

Аннотация: *в данной статье критерии и требования к личности педагога и профессиональным знаниям, роль педагогического сотрудничества в обеспечении эффективности образования, коммуникативность в педагогической деятельности, межличностные отношения, будущие ориентированы на воспитание качеств педагогов, такие как педагогическое мастерство и педагогическая деликатность.*

Ключевые слова: *педагогика, психология, мотивация, метод, педагогическая деятельность, воспитание, цели и задачи.*

Ma'lumki, har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z-o'zini anglashni vujudga keltiradi. Shaxsda o'z-o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z xulqini his qilish, o'zining amaliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlarning tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi.

Psixologiya ta'lim tarbiya jarayonlaring barcha bosqichlarida pedagogik faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslarni taqdim etadi. Shuningdek, psixologik bilimlar o'quvchilarning motivatsiya qilish, ularning o'z o'zlaring rivojlanishiga yordam berish, stress va qiyinchiliklarga qarshi kurashda qo'llaniladi.

Bu bilim yosh o'quvchilarning va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tarbiya berish usullarini tanlashda, darslarni samarali tashkil etishda va o'quvchilarning o'qishiga bo'lgan qiziqishlarni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Psixologiya inson psixikasini uning rivojlanishiga, o'qituvchi va o'quvchilarning o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida nazriy bilimlarni yoshlarga yetkazib berish, o'quvchilarning ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va manbalarni hosil qilish.

V.Kessel tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatiga bog'liq holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining mashhurligi ko'p jihatdan uning materiallarni ko'rgazmali, jonli va muammoli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq ekan. V.S.Abramova, S.M.Ilyusizova, V.A.Kan-Kalik va boshqalar "o'qituvchi-o'quvchi" munosabati bo'yicha tadqiqotlar o'tkazganlar. Tadqiqot

natijalariga ko'ra, o'qituvchining muloqotda do'st sifatida o'z o'rnini o'quvchilarning tengdoshlari va ularning ota-onalariga berganligi ko'rindi. Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan. Bunda o'qituvchilik kasbiga muvofiq yaratilgan professiogrammani ko'rish mumkin. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asnoda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining ishlab chiqilishi zarurdir. Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamrokulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek maktablarida rus tili va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini berdi.

O'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarni to'liq egallagan bo'lishi lozim, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladilar, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar e'tiborini kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi. O'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyati uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etish o'quvtarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir. Talabalarda kasbni egallashning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog'liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to'la shakllangan bo'lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ali Mamadaliyev, M., & Bobayeva, Z. (2024). O'SMIRLAR YOSHLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING VAQTINCHALIK VA DAVOMLI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(2), 68-72.
2. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISH YO 'LLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 94-97.
3. Bobayeva, Z. M. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. Science and Education, 4(2), 973-977.
4. Мансурова, Г. Р. (2024). ВЛИЯНИЕ ПРОКРАСТИНАЦИИ И ЛЕНИ НА

СФЕРУ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ. JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY, 7(5), 77-82.

5. Kizi, B. Z. M. (2023). THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE SURROUNDING WORLD. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(06), 186-189.

6. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). O'SMIR YOSHLAR O'RTASIDAGI GIYOHVANDLIKNI VA ALKOGOLIZIMNI OLDINI OLISH PROFILAKTIKASI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 3(26), 271-283.

7. Мансурова, Г. Р. (2024). ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ЛЕНИ И ПРОКРАСТИНАЦИИ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ЛИЧНОСТИ. IMRAS, 7(5), 421-425.